

**SIRDARYO VILOYATIDA
UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI
2020/2021- o'quv yili boshiga**



2020/2021- o'quv yili bo-shiga Sirdaryo viloyatida jami umumta'lim muassasalari soni 316 tani tashkil etib, ulardan 222 tasi (70,0 %) qishloq joylarda, 94 tasi (30,0 %) shaharlarda joylashgan. Sirdaryo viloyatida umumta'lim muassasalarida 158,3 ming nafar o'quvchilar ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 55,7 % i qishloq joylardagi umumta'lim muassasalarida, 44,3 % i shahar joylarda ta'lim oladigan o'quvchilarni tashkil etadi.



Umumta'lim muassasalarida sinf guruhlari bo'yicha o'quvchilar soni

(2020/2021- o'quv yili boshiga, ming kishi)




Umumta'lim muassasalari bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasadir.

Umumiy o'rta ta'lim, boshlan-g'ich ta'lim (I - IV sinflar), tayanch o'rta ta'lim (V-IX sinflar) hamda o'rta ta'lim (X-XI sinflar) bosqichlaridan iborat bo'lib, kunduzgi ta'lim shaklida faoliyat yuritadi.



Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarining hududlar kesimida taqsimlanishi, birlik (2020/2021-oʻquv yili boshiga)




Umumta'lim muassasalari soni, birlik
(o'quv yili boshiga)



Sirdaryo viloyatida 2020/2021-o'quv yili boshida jami umumta'lim muassasalari soni 316 tani tashkil etdi va 2016/2017-yilning mos davriga nisbatan 17 taga ko'payib, 5,4 % ga oshgan.

Umumta'lim muassasalari, o'quvchilar soni, ming kishi
(o'quv yili boshiga)



2020/2021-o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida jami 158,3 ming nafar o'quvchi ta'lim olmoqda. Ushbu ko'rsatkich 2016/2017- o'quv yili boshida 33,4 ming nafarga (3,9 % ga), 2017/2018- o'quv yili boshida 24,0 ming nafarga (7,5 % ga), 2018/2019- o'quv yili boshida 9,8 ming nafarga (18,8 % ga), o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,8 ming nafarga (26,6 % ga) oshganligi kuzatildi.

Umumta'lim muassasalari, o'qituvchilar soni, ming kishi
(o'quv yili boshiga,)



Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilar bu- o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslardir . 2020/2021-o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarida jami 12,7 ming nafar o'qituvchi (o'rindoshlarsiz) faoliyat olib bormoqda va 2016/2017-o'quv yili boshida 2,3 ming nafarga (29,8 % ga), oshganligi kuzatildi.




Umumta'lim muassasalarini turlari bo'yicha taqsimlanishi, birlik (2020/2021-o'quv yili boshiga)



Sirdaryo viloyati umumta'lim muassasalari uch turga bo'linadi: boshlang'ich, umumiy o'rta va boshqalar hisoblanadi. 2020/2021-o'quv yili boshiga umumiy umumta'lim muassasalarining 316 tasi umumiy o'rta ta'lim maktablari, 3 tasi boshlang'ich maktablar va 2 tasi boshqa muassasalar tarkibiga kiradi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida jami 158277 nafar, boshlang'ich ta'lim muassasalarida 620 nafar va boshqa muassasalarda 346 nafar o'quvchilar tahsil olmoqda.



**Umumta'lim muassasalarini hududlar bo'yicha
taqsimlanishi, birlik
(2020/2021-o'quv yili boshiga)**

	Boshlang'ich	Umumiy o'rta	Boshqalar
Sirdaryo viloyati	3	311	2
Guliston sh.	-	21	-
Shirin sh.	-	4	-
Yangiyer sh.	-	12	-
<i>tumanlar:</i>			
Oqoltin	-	18	-
Boyovut	-	56	-
Sayxunobod	-	41	-
Guliston	-	32	-
Sardoba	2	20	-
Mirzaobod	1	34	-
Sirdaryo	-	43	2
Xovos	-	30	-



Umumta'lim muassasalarida sinflar bo'yicha o'quvchilar soni, ming kishi ¹⁾


O'quvchilar soni jami	shundan :											
	1-sinf	2-sinf	3-sinf	4-sinf	5-sinf	6-sinf	7-sinf	8-sinf	9-sinf	10-sinf	11-sinf	
Sirdaryo viloyati	158,3	15,8	15,0	15,3	15,9	16,8	16,0	15,2	14,0	12,3	10,4	11,4
Guliston sh.	22,5	2,0	2,1	2,2	2,2	2,3	2,2	2,2	2,1	1,8	1,8	1,6
Shirin sh.	3,8	0,4	0,4	0,4	0,4	0,5	0,4	0,4	0,3	0,3	0,3	0,2
Yangiyer sh.	8,9	0,9	0,8	0,8	0,8	0,9	1,0	0,9	0,8	0,8	0,6	0,6
<i>tumanlar:</i>												
Oqoltin	9,3	1,0	0,9	0,9	0,9	1,1	1,0	0,9	0,8	0,7	0,5	0,6
Boyovut	21,7	2,1	2,1	2,1	2,2	2,2	2,2	2,0	1,9	1,7	1,5	1,8
Sayxunobod	13,9	1,4	1,2	1,3	1,4	1,6	1,3	1,4	1,3	1,1	0,8	1,1
Guliston	13,5	1,4	1,3	1,2	1,4	1,5	1,4	1,3	1,2	1,0	0,9	0,9
Sardoba	10,8	1,1	1,0	1,1	1,1	1,1	1,0	1,0	0,9	0,8	0,8	0,8
Mirzaobod	14,2	1,5	1,4	1,4	1,4	1,5	1,5	1,4	1,3	1,1	0,9	0,9
Sirdaryo	22,6	2,2	2,1	2,3	2,3	2,4	2,3	2,1	1,9	1,8	1,4	1,7
Xovos	16,9	1,8	1,6	1,7	1,7	1,8	1,7	1,6	1,5	1,3	1,0	1,2



2020/2021- o'quv yili boshiga umumta'lim muassasalarining birinchi sinfga qabul qilingan o'quvchilari soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Sirdaryo, Boyovut tumanlarida va Guliston shahrida qayd etilgan bo'lsa, eng kam ko'rsatkich Shirin va Yangiyer shaharlarida kuzatilgan.

¹⁾ Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinflar o'quvchilarsiz, boshqa ta'lim muassasalarida tashkil etilgan maktab sinflari o'quvchilarni qo'shgan holda.

Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi²⁾, %da




2020/2021-o'quv yili boshiga (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarni hisobga olmagan holda) barcha ta'lim muassasalaridan, bir smenada ta'lim yuritiladiganlari 93 ta (29,6 %), ikki smenada 221 ta (70,4 %), ni tashkil etdi. Ta'kidlanganidek, bir smenada 103,9 ming kishi, (65,6 % i) ikki smenada 54,4 ming kishi, (34,4 % i) tahsil olmoqda.

²⁾Jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar maktablarisiz va sinflar o'qituvchilarsiz




Umumta'lim muassasalarida o'qituvchilarning ma'lumoti bo'yicha taqsimlanishi, % da



2020/2021- o'quv yili boshiga jami o'qituvchilar soni 12,7 ming nafarni tashkil etib, ulardan 61,4 % i qishloq maktablarida, 38,6 % i shahar maktablarida faoliyat yuritib kelmoqda. Sirdaryo viloyatida bitta o'qituvchiga o'rtacha 12 nafar o'quvchi to'g'ri keladi.




O'qituvchilarni ta'lim darajasi bo'yicha hududlar bo'yicha taqsimoti³⁾

	Oliy ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da	O'rta maxsus ma'lumotli o'qituvchilarning jami o'qituvchilar sonidagi ulushi, % da
Sirdaryo viloyati	92,3	7,7
Guliston sh.	98,7	1,3
Shirin sh.	89,6	10,4
Yangiyer sh.	95,5	4,5
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	88,8	11,2
Boyovut	94,4	5,6
Sayxunobod	87,3	12,7
Guliston	96,0	4,0
Sardoba	91,0	9,0
Mirzaobod	93,5	6,5
Sirdaryo	88,2	11,8
Xovos	89,3	10,7

3) o'rindoshlarsiz



Umumta'lim muassasalari mashg'ulotlarining smenaliligi hududlar kesimida, birlik

	Bir semeneda	Ikki semeneda
Sirdaryo viloyati	93	221
Guliston sh.	6	15
Shirin sh.	1	3
Yangiyer sh.	1	11
<i>tumanlar:</i>		
Oqoltin	3	15
Boyovut	25	31
Sayxunobod	10	22
Guliston	10	25
Sardoba	10	31
Mirzaobod	4	18
Sirdaryo	16	27
Xovos	7	23

**Umumta'lim muassasalarida bitta o'qituvchiga to'g'ri keladigan
o'quvchilar soni, birlikda
(2020/2021-o'quv yili boshiga)**




Hududlar kesimida eng yuqori ko'rsatkich Yangiyer shahrida qayd etilib, unda bitta o'qituvchiga o'rtacha 15 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan bo'lsa, Sayxunobod tumanida esa eng past ko'rsatkich ya'ni bitta o'qituvchiga o'rtacha 10 nafar o'quvchi to'g'ri kelgan.






Umumta'lim muassasalarida bitiruvchilar soni, ming nafar



2020- yilda Sirdaryo viloyatida umumta'lim muassasalarida 11-sinfni 11,6 ming nafar o'quvchi tamomlagan bo'lib, hududlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Guliston shaharida (1,7 ming nafar o'quvchi) to'g'ri kelgan, eng past ko'rsatkich esa Shirin shaharida (ya'ni 0,2 ming nafar o'quvchi) to'g'ri keldi. Umumta'lim muassasalarida 9- sinfni 11,8 ming nafar o'quvchi tamomlagan. Eng yuqori ko'rsatkich Guliston shaharida (1,8 ming nafar o'quvchi) va Sirdaryo tumanida (1,7 ming nafar o'quvchi) to'g'ri kelgan, eng past ko'rsatkich Shirin shaharida (0,3 ming nafar o'quvchi) va Oqoltin tumanida (0,6 ming nafar o'quvchi) to'g'ri keldi.



2020/2021-o'quv yili boshiga mulkchilik shakli bo'yicha umumta'lim muassasalari, ulardagi o'quvchilar va o'qituvchilar soni

	Muassasalar soni, birlik		O'quvchilar soni, kishi		O'qituvchilar soni, kishi	
	davlat	xususiy	davlat	xususiy	davlat	xususiy
Sirdaryo viloyati	316	-	158623	-	13517	-
Guliston sh.	21	-	22527	-	1670	-
Shirin sh.	4	-	3835	-	273	-
Yangiyer sh.	12	-	8926	-	593	-
<i>tumanlar:</i>						
Oqoltin	18	-	9300	-	758	-
Boyovut	56	-	21727	-	2177	-
Sayxunobod	41	-	13893	-	1484	-
Guliston	32	-	13539	-	1264	-
Sardoba	22	-	10844	-	887	-
Mirzaobod	35	-	14181	-	1284	-
Sirdaryo	45	-	22957	-	1914	-
Xovos	30	-	16894	-	1213	-



**Umumta'lim muassasalari va ulardagi o'quvchilarni
o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi,
muassasalar soni, birlik
(2020/2021-o'quv yili boshiga)**

(jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz)



45
Tojik



276
O'zbek



3
Qozoq




31
Rus






**Umumta'lim muassasalari va ulardagi o'quvchilarni
o'qitiladigan tillar bo'yicha taqsimlanishi, *ming kishi***
(jismaniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarsiz)



Umumiy o'rta ta'lim tizimida turli tilda bilim olish imkoniyatlari taqdim etiladi: o'zbek, qozoq, rus va tojik tillarida va bu turli aholi guruhlarini ta'limga ega bo'lish imkoniyati bilan ta'minlaydi. 2020/2021- o'quv yili boshiga o'zbek tilida ta'lim beradigan umumta'lim muassasalari 312 tani tashkil etib, ulardan 276 tasi ta'limni faqat o'zbek tilida olib boradi.



Umumta'lim muassasalari o'quvchilarining jinsi bo'yicha taqsimlanishi, % da (2020/2021-o'quv yili boshiga)



2020/2021- o'quv yili boshiga, Siradaryo viloyati bo'yicha jami umumta'lim muassasalarida 158,3 ming nafar o'quvchilar (jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablar va sinf o'quvchilarsiz) ta'lim olayotgan bo'lib, ulardan 81,8 ming nafari (51,7 %) o'g'il bolalar, 76,5 ming nafari (48,3 %) qiz bolalarni tashkil etadi.



Statistik ko'rsatkichlarga izoh

Umumta'lim muassasalari – bolalarga ta'lim beruvchi, har tomonlama rivojlanishi va estetik tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi muassasalar.

Umumta'lim muassasasi uzluksiz ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini hisoblanadi va O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolariga davlat umumta'limi andozalari doirasida bepul umumiy ta'lim olishning kafolatlangan huquqi va imkoniyatini beradi.

Umumta'lim muassasasining asosiy maqsadi – o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan, madaniyatli shaxs sifatida shakllantirish, shuningdek, jamiyatda o'zlarining mustaqil o'rnini topish, ongli ravishda ta'lim va kasblar bo'yicha dasturlarni tanlash, ularni o'zlashtirish uchun asos yaratish, jamiyat, oila va davlat oldida o'z mas'uliyatlarini his qila oladigan shaxslarni tarbiyalashdan iboratdir.

Umumta'lim muassasalari o'quvchilariga – umumta'lim muassasalarining boshlang'ich va umumiy o'rta ta'lim bosqichlarida o'qiyotgan shaxslar hamda jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun maktablarning o'quvchilari kiritiladi.

Umumta'lim muassasalari bitiruvchilariga – umumta'lim muassasalarida o'qishni to'liq bitqazgan va o'rta ma'lumot uchun shahodatnoma olgan shaxslar soni kiritiladi.

O'qituvchilar soni – o'quvchilarga ta'lim berish va kasbiy tarbiyasi bilan shug'ullanuvchi, o'rta maxsus, oliy yoki maxsus tayyorgarlikdan o'tgan shaxslar soni.

Ijtimoiy soha statistikasi bo'lim
tel.: (67) 236-86-26